

“JAMIYAT TARAQQIYOTIDA DINIY BAG’RIKENGLIKNING AHAMIYATI”**Ergashev Oybek Qaxramon o’g’li****Qo’qon universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi****Sayidahmedova Muzayyamxon Hamidxon qizi****Qo’qon universiteti, FTO’I yo’nalishi talabasi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20656667>**ANNOTATSIYA:**

Ushbu maqolada diniy bag’rikenglik, uning jamiyatdagi o’rni, ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, O’zbekistonda turli millat va din vakillari o’rtasidagi totuvlik va tinchlik masalalari ko’rib chiqiladi. Shu bilan birga, diniy bag’rikenglikni mustahkamlashning ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta’minlashdagi roli va hozirda diniy bag’rikenglikni kengaytirish uchun qilinayotgan islohotlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: diniy bag’rikenglik, din, jamiyat, millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, bag’rikenglik, ijtimoiy barqarorlik, tinchlik.

ABSTRACT:

This article examines the concept of religious tolerance, its role and significance in society. The article explores the historical roots of religious tolerance in Uzbekistan and the Central Asian region, and addresses issues of harmony and peace among representatives of various nationalities and religions. Furthermore, it highlights state reforms aimed at strengthening religious tolerance in modern Uzbekistan and their important role in ensuring social stability. The article substantiates religious tolerance as an essential condition for the progress and development of society.

Keywords: religious tolerance, religion, society, interethnic harmony, freedom of conscience, tolerance, social stability, peace.

Аннотация:

В данной статье анализируется понятие религиозной толерантности, её роль и значение в обществе. В статье исследуются исторические корни религиозной толерантности в Узбекистане и регионе Центральной Азии, рассматриваются вопросы согласия и мира между представителями различных национальностей и религий. Кроме того, освещаются государственные реформы, направленные на укрепление религиозной толерантности в современном Узбекистане, и их важная роль в обеспечении социальной стабильности. Статья обосновывает религиозную толерантность как неотъемлемое условие прогресса и развития общества.

Ключевые слова: религиозная толерантность, религия, общество, межнациональное согласие, свобода совести, толерантность, социальная стабильность, мир.

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida turli millatlar va din vakillari o’rtasida hurmat, hamjihatlik va bag’rikenglik tushunchalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Diniy bag’rikenglik – bu turli e’tiqod vakillarining oliyjanob g’oya va niyatlar yo’lida hamkor bo’lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo’lida xizmat qilishini anglatadigan tushuncha hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bu ezgu g’oya nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a’zolari o’rtasidagi hamkorlik va bahamjihatlikni nazarda tutadi. Diniy bag’rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

O'zbekiston qadimdan turli millat va din vakillari tinch-totuv yashab kelayotgan davlat hisoblanadi. Bizning diyorda – buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko'rsatgan. Bu holat bizning yerimiz diniy bag'rikenglik va o'zaro hurmat tushunchasida ancha chuqur tarixiy ildizga ega ekaniga yaqqol dalil bo'la oladi.

Bu maqolaning asosiy maqsadi diniy bag'rikenglik tushunchasi, va uning jamiyatga bo'lgan ahamiyati va o'rnini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, Maqolada O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ularning jamiyat barqarorligini saqlashdagi muhim o'rni haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

1-BOB

“Diniy Bag'rikenglik tushunchasi va uning mohiyati”

Diniy bag'rikenglik bu azaldan bo'lib kelgan an'ana bo'lib bu turli diniy e'tiqod vakillari va din vakillari bilan hamjihatlikda va bag'rikenglik asosida yashashni anglatuvchi tushuncha hisoblanadir. U insonning dini, millati yoki e'tiqodidan qat'iy nazar bir-biriga bo'lgan muomala va munosabatda farq qilmasligini anglatadi. Bu atama O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham keltirib o'tilgan 18 – modda “Tenglik prinsipi”, “Barcha fuqarolar jinsi, millati, tili, dini, e'tiqodi, va boshqa holatdaldan qat'I nazar qonun oldida tengdurlar. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida diniy bag'rikenglikning huquqiy asoslari “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonunda ham mustahkamlangan bo'lib, unda fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi himoya qilinadi. 31- modda “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega.” Diniy bag'rikenglik nafaqat o'zbekistonda balkim butun-jahonda ham o'z orniga ega hisoblanadi.

UNESCO tomonidan bag'rikenglik masalasiga alohida e'tibor qaratilib, 1995 yil “Bag'rikenglik yili” deb e'lon qilingan. Bu esa diniy bag'rikenglikning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

2-BOB

“Zamonaviy O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash: islohotlar va natijalari”

Mustaqillik yillarida O'zbekiston diniy bag'rikenglikni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi vijdon va e'tiqod erkinligini kafolatlaydi, har qanday din vakilining o'z e'tiqodiga ko'ra yashash huquqini himoya qiladi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonun esa turli konfessiyalarning qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Undan tashqari so'ngi yillarda O'zbekiston dinlararo muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tbor qaratmoqda. Turli hil konfessiya vakillari va diniy bayramlard birgikda ishtirok etishi jamiyatdagi hamjihatlikni mustahkamlashga hizmat qilmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 16 konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ularga o'z diniy marosimlarini o'tkazish va mamlakat hayotida faol ishtirok etish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ma'lumki, dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko'ra ezgulik g'oyasiga asoslanadi, kishilarni halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lish, hamisha yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iboratdir va bu uchun eng yaxshi va samarali usul deb davlatlar va millatlar birlashishi deya hisoblanadi. Bu gaplarga isbot tariqasida boshqa din vakillari boshqa din vakillarini yashash hududlariga tashrif buyurishgan vaqtda, ularga diniy taraflama sharoitlar va inshaotlar barpo etilmqoda, misol uchun O'zbekiston turli din vakillari yashovchi mamlakat hisoblanib, ulardan 90% dan ortig'ini musulmonlar tashkil etadi va boshqa davlatdan keladigan musulmon turistlar uchun sharoitlarni yaxshilash maqsadida kundan- kunga judayam

ko'p masjidlar barpo etilmoqda va hozirda 2500 ga yaqin masjidlar mavjud. Qolaversa, O'zbekistonda 5% xristianlar va qolgan foizlarni esa qolgan din vakillair egallaydi. O'zbekistonda cherkovlar va boshqa islohotlar qurib bitkazilmoqda va ularni barchasi bir maqsadda, diniy bag'rikenglikni yanada rivojlantirishga qaratilgan.

3- BOB

"Diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlik: o'zaro bog'liqlik va ahamiyati"

Diniy bag'rikenglik jamiyat barqarorligining asosiy poydevori hisoblanadi. Tarixdan, diniy bag'rikenglik qaror topgan jamiyatlarda ijtimoiy ziddiyatlar kamayib, aholi o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro ishonch kuchayadi. Aksincha, diniy murosasizlik va toqatsizlik jamiyatda beqarorlik, nizolar va ijtimoiy parchalanishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy zaruriyat hamdir. O'zbekistonda diniy bag'rikenglikning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, turli din vakillari o'rtasidagi tinch-totuv munosabatlar mamlakatning ichki siyosiy barqarorligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, dinlararo muloqot va hamkorlik iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki tinch va barqaror jamiyatda investitsiyalar jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish ancha osonlashadi. Uchinchidan, diniy bag'rikenglik muhitida o'sgan yosh avlod bag'rikeng, insonparvar va vatanparvar fuqarolar sifatida yetishib chiqadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, O'zbekistonda "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida olib borilayotgan siyosat diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu tamoyil aholining diniy savodxonligini oshirishga, noto'g'ri va yovuz g'oyalarning oldini olishga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 16 ta diniy konfessiya vakillari o'zaro hurmat va hamkorlik asosida yashab kelmoqda.

Diniy bag'rikenglikning ijtimoiy barqarorlikdagi o'rni xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil BMT Bosh Assambleyasida taklif etilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasi 2018-yil qabul qilinishi buning yaqqol isbotidir. Bu hujjat O'zbekistonning diniy bag'rikenglik sohasidagi xalqaro obro'-e'tiborini yanada mustahkamladi va mamlakatimiz tajribasini jahon hamjamiyatiga namuna sifatida taqdim etdi.

Shunday qilib, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlik o'zaro uzviy bog'liq tushunchalar bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi va mustahkamlaydi. Bag'rikeng jamiyatda tinchlik hukm suradi, tinch jamiyatda esa taraqqiyot uchun barcha imkoniyatlar ochiladi. O'zbekiston bu yo'lda erishilgan yutuqlar bilan nafaqat o'z fuqarolari, balki butun xalqaro hamjamiyat oldida ham munosib o'rnak bo'lib kelmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, diniy bag'rikenglik jamiyat taraqqiyotining ajralmas va muhim qismidir. Ushbu maqolada ko'rib chiqilganidek, diniy bag'rikenglik tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra turli e'tiqod va millat vakillarining o'zaro hurmat, hamkorlik va hamjihatlik asosida yashashga o'rgatadi. O'zbekiston bu borada nafaqat boy tarixiy merosga, balki mustaqillik yillarida erishilgan katta amaliy tajribaga ham egaligini tahlil qildik.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar; Konstitutsiyaning 18 va 31-moddalari, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun, 16 konfessiyaning faol faoliyati; ularning barchasi diniy bag'rikenglikni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida mustahkamlab kelmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonning BMT Bosh Assambleyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasini taklif etishi va uning 2018-yilda qabul qilinishi mamlakatimizning bu sohadagi xalqaro miqyosdagi nufuzini yana bir bor tasdiqladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni. 2021-yil 5-iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar.
4. Ibragimov S.E., Ibragimov J.S. "Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik o'zbek xalqining yuksak qadriyatidir" // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2022. — V.2, №1. — B. 811-818.
5. UNESCO. Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risida Deklaratsiya. — Parij, 1995-yil 16-noyabr.
6. BMT Bosh Assambleyasi. "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasi (A/RES/73/329). — 2018-yil 12-dekabr.